

MIGRANTLAR IJTIMOIIY BEGONALLASHUVI: SABABLARI VA OQIBATLARI



Anvar Qodirov Qahhorovich

Alfraganus University, Ijtimoiy fanlar kafedrası professori, Falsafa fanlari
doktori

Annotatsiya: ushbu maqolada migratsion jarayonlarning sabablari va oqibatlari yoritiladi. Shuningdek migrantlarning qabul qiluvchi ijtimoiy makonga moslashuvi masalalari tahlil qilinadi. O'zbekiston, MDH davlatlari va jahon mamlakatlari o'rtasida migratsion munosabatlarni optimallashtirishga doir xalqaro munosabatlarni tarixiy davr kontekstida ko'rib chiqish va bu masalalar umumiy konsensusga erishish barcha tomonlar uchun ijobiy natija beradi. Migrantlar borayotgan mamlakatlarda etnomadaniy jihatdan ajraliq qolayotganligi, moddiy – maishiy va sotsial sharoitlari begonaligi, ularga nisbatan munosabat harakterining “nostandartligi, sohaga talluqli qonunchilik buzilishi, sotsiol diskriminatsiya, iroda erkinligining ish beruvchilarga bog'liqligi kabilar migrantlar o'rtasida ektramistik va terroristic guruhlariga jalb etilayotganlarning ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun intellektual migratsiya tendensiyasi kuchayishi ham kuzatiladi. Achinarlisi mamlakatimiz jahon rivojlangan mamlakatlariga intellectual salohiyatini yuksaltiruvchi “donor”ga aylanib qolinishi xavotirlidir. 2022 yil 2 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida” gi qonun, ma'muriy islohotlar konsepsiyasi, davlat xizmati to'g'risidagi farmonlar, shubhasiz, o'z natijasini beradi – ular tashqi migratsiya tendensiyasini susaytiradi.

Kalit so'zlar: migratsiya, globallashuv, begonallashuv, ma'naviyat.

Migratsiya - aholining o'zi istiqomat qilayotgan xududdan tashqariga chiqib ketishi turli sabablar bilan bog'liq. Bugun Jahon ilmi va siyosatida migratsiya muomosi dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa globallashuv jarayoni bu masalani yanada dolzarlashtirib yubordi [1.25]. Migratsiya murakkab serqira va ko'p olchovli ijtimoiy xodisadir. U milliy, mintaqaviy va global miqyosda namoyon bo'ladi.

Migratsiyaning asosiy sababi – inson, fuqaroning o'z yashash sharoitidan va turmush darajasidan qoniqmasligidir. Qashshoqlik (kambag'alik), ishsizlik, ijtimoiy notinchlik, tabiiy va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi, demografik ko'payish, ish xaqining pastligi, korrupsiya va h.k. aholida mamlakat istiqboliga pessimistik qarashlarni shakllantiradi.

Mamlakatimizda ham tashqi migratsiya masalasiga keying paytlarda e'tibor qaratilmoqda. Yaqingacha xorijga chiqib mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan salbiy munosabat shakllangan edi. Bugun vaziyat o'zgardi – tashqi migratsiyaga nisbatan davlat siyosati qaror topti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-iyuldagi “Tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi 38 – 39-sonli Qarori bilan O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qollab quvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor berishga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston tashqi migratsiyasining deyarli 80% Rossiya federatsiyasiga tog'ri keladi. Rossiya Federatsiyasining Prezidenti V.Putinning 2024 yil may oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida bu masalaga ham katta e'tibor berildi – endilikda migrantlar masalasi bo'yicha ikki tomonlama hukumatlararo shartnoma asosida migratsiya oqimini barqarorlashtirish va ish beruvchilar tomonidan migrantlarning ijtimoiy muhofaza haqida kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlarining vazirligining Matbuot xizmatining ma'lumotiga ko'ra, xalqaro mehnat migratsiyasi siyosatida muhim muomolardan biri – raqamli platforma orqali axborot almashish hisoblanadi [2.212]. Bu yo'nalishda muayyan qadamlar qoyilgan - O'zbekiston Respublikasi Yagona milliy mehnat tizimi bilan “Rabota v Rossiya” Umum Rossiya bosh ish joylari ba'zasi axborot – tahliliy tizimi ma'lumotlari ba'zasining integratsiyalashuviga erishildi.

Biroq migratsiya masalasi migrantlar va ularni qabul qiluvchi mamlakat o'rtasida, aniqrog'i – madaniyati o'rtasida ayrim muomolarni ham keltirib chiqaradi. Migratsiya ijtimoiy hayotning nafaqat iqtisodiy sohasiga, balkim madaniy va ma'naviy sohasiga ham ta'sir otkazadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, migratsiya kolamining oshib borishga ishsizlik, kambag'allik, inson huquq va erkinliklarining poymol qilinishi insonlarda kelajakda ishonchsizlik, umidsizlik, tsuhkunlik kayfiyatlari sabab bo'ladi.

Migrantlar xorijda begona ijtimoiy muhitga moslashish, (adaptatsiya) bosqichini o'tishga majburdirlar [3.38]. Hamma vaxt ham migrantlar bu bosqichni muvaffaqiyatli uta olmaydilar – til, diniy, irqiy va ma'naviy farqlar turli muomolarni tug'diradi. Bu o'z navbatida migrantlarga nisbatan migrantafobiya, ksenafobiya (ya'ni boshqa madaniyatga nisbatan murosasizlik) kayfiyatlarni keltirib chiqaradi ijtimoiy nizoli vaziyatlar shakllanadi, jamiyat barqarorligiga putr yetadi. Buni ko'p millatli, etnik jihatdan xilma xil xududlardan biri – Rossiya Federatsiyasining Janubiy – federal okrugi (rastov-don) misolida kuzatish mumkin.

Mahalliy ma'muriyat vakillarining takidlashicha etnik o'zbeklar va tojiklar mahalliy madaniy muhitga tez moslasha olmaydilar, o'z odatlari va an'analari bilan mahalliy urf odatlar, turmush tarzi bilan muros qila olmaydilar (masalan, ko'chada yurish turish qoidalariga rioya qilmaydilar, kamoat joylarida gigiena sanitariya tartibini buzadilar – bemalol nos tupuradilar, mamurlar tomonidan tartibga chaqirilsa o'zlarini tajavuskorlikga soladilar va h.k.).

Mahalliy aholi kundalik hayotda migrant – muhojirlar bilan o'zaro a'loqada bo'lishga majbur. Mahalliy aholi "Men kelgindi – muhojirlarni yoqtirmayman ammo menga arzon narxda, yaxshi ish bajaruvchilar kerak. Mayli, ular "kelgindi" bulaqolsin. Ammo men mablag'imni tejab qolaman" degan mulohazada bo'ladi. Migrantafobiya natijada etnik – millatchilik, shovinistik qiyofaga kiradi. Bu ayniqsa Rossiya va Ukraina o'rtasida 2022 yil boshlangan qurolli to'qnashuv oqibatida yanada keskinlashdi. Mahalliy aholi o'rtasida migrantlarga nisbatan sotsiologik so'rovnoma o'tkazilganda Markaziy Osiyodan kelgan o'zbek, tojik, qirg'iz va qozoqlarga 50 % yaqin respondentlar sovuq munosabat bildirganlar. Albatta, aholining katta yoshli, aksariyati Markaziy Osiyoning, ayniqsa o'zbeklarning Ikkinchi jahon urushi davrida bag'rikenglik, mehmondo'stlik qilganliklarini xotirlaydilar ularga nisbatan tolerant, hurmat munosabatidalar.

Umumlashtirib aytganda tashqi migratsiya global miqyosda kichadi. Bugun Yevropa, Amerika qit'alarida turli sabablar bilan Osiyo, Afrika mamlakatlaridan migratsiya qiluvchi aholi nufuzi, dinamikasi yilsayin ortib bormoqda. Ayrim Yevropa mamlakatlarida Osiyo va Afrikadan ko'chib kelish ommalashib borib, Angliya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Daniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda urban shakllidagi etnik diasporalar, jamoalar shakllanmoqda, ushbu mamlakatlarda qator ijtimoiy – madaniy muomolarni toldirmoqdalar.

O'zbekiston milliy manfaatlarini nuqtayi nazardan "aqlililar", ya'ni oliy ma'lumotlilar, malakali mutaxassislarining xorij, rivojlangan davlatlarga migratsiyasi xavotirlidir. Rivojlangan davlatlar momay "aqli" fuqarollarga ega bo'lish strategiyasini qollaydilar. Turli grantlar fondlar ayniqsa "yashil karta" (Green card) lar vositasida mehnatga layoqatsiz, dangasa fuqarollarni emas, aksariyat layoqatli, istedodli kishilarga viza beradilar.

Bugun jahonda nafaqat tovarlar bozori balki iqtidorli mutaxassislar bozori ham shakllandi. Turli xalqaro tadbirlar, qo'shma hamkorliklar "aqli" sube'yktlarni tanlash, milliy iqtisodiyot madaniyat yuksalishiga jalb qilish buning uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish ayrim rivojlangan davlatlarning kadrovii strategiyasi, yumshoq kuch (Soft Power) taktikasi va strategiyasidir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. Milliy taraqqiyot yo'lini qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. – T: "O'zbekiston", 2017. – 532 b.
2. Parmonov F. Migratsiya, integratsiya, transformatsiya. – T; . 2020. – 284 b
3. Djangirov M. Protsesi urbanizatsiya v O'zbekistane. //http://www.anons.uz / articles / 5188/
4. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. – T; 2010.
5. Migration and Development Brief. October. 2013